



infoCOM.UZ

S. Beknazarova,

*t.f.d., Muhammad
al-Xorazmiy nomidagi
TATU dotsenti*

K. Beknazarov,

mustaqil tadqiqochi

INTERNET JURNALISTIKA – elektron ijod mahsuli sifatida

Internet jurnalistikasi tushunchasi mazmun-mohiyatida Internet tarmo-g'ida mavjud on-line nashrlari, bosma ommaviy axborot vositalarining veb-ko'inishini hamda faqat global tarmoq muhitida faoliyat yurituvchi internet nashrlarini tushunamiz. Ayni kunda mazkur tushuncha tarkibiga axborot agentliklari, TV va radioning internetdagi faoliyatini ham qamrab olish ham o'rinni.

Internet jurnalistikasining ko'lemi tobora kengayib borayotgani sayin, uning o'ziga xos ishlash tizimi, mexanizmi, tamoyillari shakllanmoqda. Internet tizimida va u orqali axborot taqdim etayotgan ommaviy axborot vositalarida multimedialik, interaktivlik va tezkorlik birinchi darajaga ko'tariladi. Internet nashrning ommaviy axborot vositasi (OAV) sifatida faoliyat yuritishi huquqiy jihatdan ham belgilab berilgan. Yangi tahrirdagi «OAV to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida «Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan

hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir» deb belgilangan. (4-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-yil, 03/18/476/1087-son).

Internetdan joy olgan media-resurslarni tavsiflaganda, ularni bir-biridan farq qiluvchi bir necha jihati mavjudligini inobatga olish kerak. Ommaviy axborot vositalari veb-muhitda o'z sahifasini ochar ekan, unga bir necha vazifalarni yuklashi mumkin. Ba'zi ommaviy axborot vositalari internetda an'anaviy nashrning

elektron variantini joylashtirsa (www.mohiyat.uz, www.hurriyat.uz, www.dp.uz, www.diyonat.uz), ba'zilar tashkilot haqida ma'lumot beruvchi korporativ sahifani ochadi (davlat organlarining veb-saytlari, turli tashkilot va muassasalarning veb-sahifalari) va u o'ziga yarasha «visit card» vazifasini o'taydi. Biroq ayni davrda alohida e'tibor to'liq on-line rejimda faoliyat yurituvchi elektron resurslarga (www.region.uz, www.uzreport.com, www.gorizont.uz, www.gzt.uz va boshqalar) qaratilmoqda. Internetda mavjud ommaviy axborot vositalarini yana bir necha jihatga ko'ra tavsiflash mumkin.

Birinchiidan, veb-manbalarining qamrab olayotgan mavzu ko'lamiga qarab internetda taklif etilgan ommaviy axborot vositalari:

- Monotematik — bir mavzu doirasida ma'lumotlar berib boruvchi ixtisoslashgan veb-saytlar;
- Politematik — turli yo'nalishlarni qamrab oluvchi, davr talabiga ko'ra mavzu ko'lamini kengaytiradigan veb-manbalariga bo'linadi.

Ikkinchidan, ular janr xususiyatiga ko'ra farqlanadi. Internet nashrning mazmuni va janr xususiyatidan kelib chiqib, ularni:

- yangiliklar manbai;
- tahliliy resurslar;
- mualliflik saytlari;
- ko'ngilochar saytlar;
- tahririyat veb-sahifalariga ajratish mumkin.

Uchinchidan, yangi medialar tegishlilik tamoyiliga asosan ham farqlanishi mumkin. Masalan, veb-muhitda mavjud resurslar:

- davlatga tegishli manbalar;
- media kompaniyalarga tegishli veb-resurslar;
- siyosiy mavzularda tashkil etilgan manbalar;
- biznes tashkilotlariga taalluqli bo'lgan medialar;
- mustaqil veb-sahifalar sifatida tavsiflanishi mumkin.

To'rtinchidan, ular texnik jihatdan tashkil etilganiga ko'ra farqlanadi. Bunda veb-manbaning nafaqat texnik, balki mazmun jihatdan qanday tashkil etilgani, maqsadi va vazifalari nimadan iborat ekanini inobatga olinadi. Xususan, bunga ko'ra, ular veb-sayt, veb-portal, yangiliklar uzatish guruhlarini va ma'lumot yuborish xizmati kabilarga ajratiladi.

Veb-sayt (web-site) — ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi «internetdagi joy»ni anglatadi. Veb-sahifalar joylashgan joy sayt deb ataladi. Ular odatda «http://»dan boshlanadigan manzilga ega bo'ladi. Ommaviy axborot



vositalarining saytiga gazeta va jurnallarining har bir sonini joylashtirish, o'zi haqidagi ma'lumotlarni berish hamda tahririyat tomonidan kundalik yangiliklarni uzatish vazifalari yuklatiladi. Portal (portal) — so'zma-so'z tarjimasiga ko'ra «darvoza» ma'nosini bildiradi. Boshqa internet sahifalardan farqli ravishda, veb-portal o'zida bir necha saytlarga teng manbalarni birlashtiruvchi yirik resurs hisoblanadi. Bunday informatsion resursni tashkil etgan muassislar odatda unga bir necha vazifani yuklaydi. Xususan, portal o'quvchini alohida mavzular bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun o'z ichiga qamrab olingan tarkibiy manbalariga yo'naltiradi. Portallar xech qachon monotematik, ya'ni bir mavzu bilan cheklanmaydi.

Ularning xususiyati aynan, politematik resurs sifatida o'quvchiga kompleks ma'lumot berishdir. O'z navbatida, ular qidiruv, korporativ, informatsion portallarga bo'linadi. Yangiliklar uzatish guruhlarini (newsgroups) — kishilarning birlashib, umumiy qiziqish va manfaatlar bo'yicha munozara va davra suhbatlarini o'tkazishga mo'ljallangan tizim. Mazkur xizmat auditoriyaning o'zi tomonidan tashkil etiladi. Elektron pochta orqali amalga oshiriladigan axborot almashinuvi batamom o'quvchilarning ixtiyorida kelib chiqib tuziladi. Muloqot quyidagi tarzda kechadi. Biror inson tomonidan ma'lum mavzu yuzasidan yig'ilgan ma'lumotlar, maqolalar, lavhalar dunyoning boshqa chekkasida yashovchi shu mavzuga qiziqishi bo'lgan kishilarga yuboriladi. O'z navbatida, ular olgan ma'lumotlarini o'zida mavjud yangiliklar va fikr-mulohazalar

bilan to'ldirib, boyitib qayta almashishadi. Bunda ma'lumotlarning muntazamligi, hajmi, mavzu ko'lami, xullas, barchasi o'quvchilar ixtiyori bilan belgilanadi. Shu tarzda auditoriya informatsiya yaratish, uzatish, tarqatish va chop etish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qatnashadi. Xatlarning uzun «zanjiri» singari yaratilgan yangiliklar uzatish guruhlarini, mohiyatiga ko'ra, muntazam ravishda, yangilanib turuvchi, maqolalarning tematik to'plami, deb aytish mumkin.

Ma'lumot yuborish xizmati bevosita axborot ishlab chiqarish jarayoniga emas, uni tarqatish va ommaviylashtirishga aloqador bo'lgan informatsion xizmat sanaladi. Mazkur xizmat veb-manbaning kundalik yangiliklarini kunning aniq belgilangan vaqtida, bevosita o'quvchilarning elektron pochta manzili-ga yetkazib beruvchi vosita hisoblanadi. Undagi ma'lumotlar bilan bevosita shu xizmatga obuna bo'lgan o'quvchilargina ta'minlanib turadi. Internet jurnalistika — elektron ijod mahsuli sifatida Internet muhitida jurnalist ijodi orqali shakllanadi va foydalanuvchilarga taqdim etiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, internet imkoniyatlari jurnalistning ijodiy jarayoniga ma'lum yangilik va o'zgarishlarni olib kiradi. Jumladan, tarmoqning multimedia xususiyati, tezkorlik va interaktivlik prinsiplari ijodni odatiy bosma ommaviy axborot vositalari uchun maqola tayyorlashdan farqli bo'lgan jarayonga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda, mamlakatimizda Internet jurnalistikaning jadal rivojlaniib borayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. 🖱️

